



O‘ZBEKISTONDA KURASH SPORTINING RIVOJLANISHI

Namozov Azamat Tog‘ayevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

„Jismoniy tarbiya va sport“ kafedrasi o‘qituvchisi

Yusupova Munira

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda kurash sportining qadimiy ildizlari, an’anaviy qoidalari, rivojlanish tarixi va kurashning bugungi kunda o‘rni va kelajagi haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: belbog‘li kurash, O‘zbekiston kurash federatsiyasi, yaktak, halol, yonbosh, chala, tanbeh, dakki

Abstract: This article describes the ancient roots of the sport of wrestling in Uzbekistan, its traditional rules, the history of its development, and the role and future of wrestling today.

Keywords: belt wrestling, Uzbekistan Kurash Federation, yaktak, halol, yonbosh, chala, tanbeh, dakki.



Аннотация: В статье описываются древние корни спортивной борьбы в Узбекистане, ее традиционные правила, история ее развития, а также роль и будущее борьбы сегодня.

Ключевые слова: борьба на поясах, Федерация борьбы Узбекистана, яктак, халяль, ёнбош, чала, танбех, дакки.

Kirish

O'zbekiston hududida asrlar davomida shakllanib kelgan kurash sporti milliy madaniyat va tarixiy an'analar bilan uzviy bog'liq bo'lgan betakror meros hisoblanadi. Bu sport turi qadimdan xalqimiz orasida jismoniy tarbiya, jasorat va adolat timsoli sifatida shakllangan bo'lib, uning ildizlari chuqur tarixiy qatlamlarga borib taqaladi. Kurash urf-odatlar, marosimlar va harbiy san'at unsurlari bilan uyg'unlashgan holda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bugungi kunda kurash nafaqat sportning alohida turi sifatida, balki milliy o'zlikni anglash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda kurash sport turini rivojlantirish uchun 1992-yilda O'zbekiston kurash federatsiyasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasida 1992 – yil 14 – yanvarda qabul qilingan-Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport tarmoqlarini tubdan isloh qilish masalalari maqsad qilib belgilandi.

Kurash – o'zbek milliy sport turi. Belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi hisoblanadi. Kurash sporti ayniqsa Yunonistonda rivojlanib, qadimgi olimpiya o'yinlari sirasiga kirgan, bundan tashqari milliy kurashning xilma-xil ko'rinishlari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda mavjud.



Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O‘zbekiston 1993-yildan a’zo). Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olinib boshlandi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O‘zbekiston janubi) hududidan topilgan tez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Eramizning IX asrida kurash rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘sha kezlarda zamonaviy O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholi an‘anaviy bayramlar, to‘y-hashamlar va yirik jamoatchilik tadbirlari davomida kurashdan ko‘ngil ochish va dam olish vositasi sifatida foydalanganlar. Keyinroq kurash ko‘ngil ochish vositasidan mustaqil sport turi va jismoniy chiniqish usuliga aylandi. Eng kuchli kurashchilar xalq orasida ma’lumu-mashhur bo‘lib, ular haqida afsonalar to‘qila boshlandi. XII asrda yashab o‘tgan Pahlavon Mahmud buning yaqqol namunasidir. Hali-hanuz uning qabri ziyoratchilarning sevimli maskani va muqaddas qadamjolardan biri hisoblanadi.

XIV asrda insoniyat tarixida yorqin iz qoldirgan tengi yo‘q sarkarda va davlat arbobi Amir Temur o‘z askarlarini chiniqtirish va jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida kurashdan foydalangan. Ma’lumki, Amir Temur armiyasi zamonasining eng qudratli va yengilmas qo‘shini hisoblangan. 1998 yilning 6 sentabr sanasi O‘zbek Kurashining bir necha ming yillik tarixi sahifalariga zarhal harflar bilan bitildi. Lotin Amerikasi, Yevropa va Osiyo qit’asining 28 davlati vakillari ishtirokida Toshkentda bo‘lib o‘tgan ta’sis kongresida “Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi (IKA)” tuzilganligi, xalqimizning milliy qadriyati “Kurash” nomi bilan jahon maydoniga chiqqanligi e’tirof etildi.



Shu kongresning o‘zida IKAning Ijroiya qo‘mitasi tashkil qilindi, Kurashning xalqaro qoidalarini bir ovozdan ma’qullandi.

Xalqning qadim qadriyati, oriy va g‘ururi bo‘lgan kurashning jahonga yuz tutishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlagan Islom Karimov “Kurash Xalqaro Assotsiatsiyasi”ning faxriy prezidenti etib saylandi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti 1999 yilning 1 fevralida Kurash “Xalqaro Assotsiatsiyasi”ni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi PF 2211 son farmoniga imzo chekdi.

Musobaqa Nizomi

Kurash qoidalariga rioya qilgan holda musobaqa o‘tkazuvchi davlat tashkiloti yoki federatsiya tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi;

Musobaqaning nizomida quyidagilar qayd etilishi lozim:

1. Musobaqa turi.
2. Musobaqaning maqsad va vazifalari.
3. Qatnashuvchi tashkilotlar va jamoalar, qatnashuvchilar (sport tasnifi, yoshi, jinsi, qaysi jamoadan ekanligi).
4. Musobaqa o‘tkazish joyi va vaqti.
5. Musobaqaning ochilish marosimi.
6. Musobaqa o‘tkazish tartibi.
7. Musobaqada ishtirok etish shart – sharoitlari.
8. Musobaqani o‘tkazishga ma’sul tashkilot.
9. Hakamlar hay’ati.
10. Kurashish vaqti.
11. Tanaffus vaqti 20 daqiqa.
12. Musobaqada ishtirok etish uchun talabnomalar berish muddati.
13. Tibbiy nazorat va tozalikni ta’minlash tartibi.



14. Mandat komissiyasiga tavsiya etiladigan hujjatlar.
15. Noroziliklar bildirish va ularni ko‘rib chiqish tartibi.
16. Musobaqa o‘tkaziladigan sana va xar bir vazn toifasida bellashuvlar boshlanish vaqti.
17. Musobaqa g‘oliblarini va sovrindorlarni mukofotlash tartibi.
18. Musobaqaning yopilishi marosimi

« T a ‘ z i m »

Kurashchilar salomlashishi uchun ishlatiladigan iborasi.

Bu iborani ishlatganda hakam ikkala qo‘lini kaftlari bilan oldinga qaratgan xolda yon tomonga ochib, keyin barmoqlari yuqoriga qaragan xolda balanddan bukib, qo‘llarini ichkariga aylantirish ishorasini qiladi, bu vaqt ikkala qo‘lning barmoqlari bir – biriga uchma – uch xolga kelishi kerak.

« O‘ r t a g a »

Kurashish maydoniga chorlovchi iborasi

Hakam qo‘llarini ikki tomonga yoygan xolatda qo‘l kaftlarini bir – biriga qaratib, yelka kengligiga olib keladi.

« K u r a s h »

Usul qo‘llab baho olinganda;

2. Kurashchilardan birortasi usul to‘liq qo‘llanmasdan tizzasi gilamga tegsa;

Gilamdan kurashchilar chiqib ketsa;

Hakamning «To‘xta» buyrug‘ini eshitmasalar, o‘rtadagi hakam tezda ularga yaqinlashib to‘xtatishi shart;

Xalol G‘alaba Kurashning Asosiy Mezonidir

« X A L O L »

Sof g‘alaba iborasi.

Hakam baland ovoz bilan qo‘l kaftini yuqoriga barmoqlari jips xolda ko‘taradi.

Izox;



Tezlik bilan chiroyli usul qo'llab raqibining ikki kuragini gilamga tekkizsa;
Kurashchi usul qo'llab o'zi ikki kuragiga yiqilsa raqibiga «Halol» beriladi;
Raqibining ikki oyog'ini xavodan aylantirib, chiroyli usul qo'llab tezlik bilan to'liq
bir kuragini gilamga tekkizsa xam beriladi;

«G'irrom» ogohlantirishini olganning raqibiga beriladi;

Kurashchi 3 daqiqa ichida gilamga chiqmasa;

« T A N B E H

Birinchi ogohlantirish iborasi.

Hakam kurashchi tomonga burilib, qo'lini oldinga cho'zgan xolda barmog'i bilan
tanbeh olgan kurashchini ko'rsatadigan ishora.

« D A K K I »

Ikkinchi ogohlantirish iborasi.

Hakam qo'lini musht qilib tirsagidan bukib (900) ishora qiladi.

Qo'l barmoqlar musht xoliga kelgan va kaft old tomonga qaragan bo'lishi kerak

« G' I R R O M »

Oxirgi ogohlantirish iborasi.

Hakam kurashchi tomonga burilib, qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan xolda yon
tomonga cho'zib ikki – uch marta pastga silkitib ishora qiladi.

« B E K O R »

Baholanmagan usul iborasi.

Hakam qo'lini kafti bilan yon tomonga qaratgan xolda (barmoqlari jipslashgan)
oldinga cho'zib ikki – uch bor chapga va o'ngga harakatlantirib ishora qiladi.

« J A Z O »

Tenglik paydo bo'lganda ishlatiladigan iborasi.

– Kurash davomida kurashchilar vaqtning oxiriga kelib tenglik paydo bo'lsa,
o'rtadagi hakam kurashni to'xtatib, kurashchilarga «Jazo» e'lon qiladi.



UMUMIY QOIDALAR

Kurash faqat tik holatda, raqibiga xavf tug'dirmaydigan usullar qo'llash orqali kurashiladi.

Tik holatda bajarilgan usullar oxiriga yetkazilsa hakamlar tomonidan baholanadi.

Kurashda usul gilamning ichkarisida boshlanib gilam xavfli chizig'idan tashqarida nihoyasiga yetsa, baholanadi.

Kurashchilarning natijalari e'lon qilingandan so'ng, hakamlar qarori qat'iy hisoblanadi va qayta muhokama qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida 2024- yilning 20-martida PQ-450-son qarori qabul qilindi. Bu qaror sababli kurash sportini rivojlantirish va ommalashtirish uchun yurtimizda bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularga quyidagilar:

Ilmiy-tadqiqot loyihalari: Prezidentning 2024-yil 20-dekabrdagi qaroriga binoan, kurashni rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar kurash bo'yicha xalqaro darajadagi malakali trenerlar va hakamlarni tayyorlash, ilmiy-amaliy qo'llanmalarni ishlab chiqish va kurashning yangi yo'nalishlarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

Xalqaro hamkorlik: Kurashni xalqaro miqyosda rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xorijdagi diplomatik vakolatxonalar orqali Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va Xalqaro kurash institutining faoliyatiga ko'maklashish vazifasi yuklangan.

Mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish: Kurashni rivojlantirishga mahalliy yirik tadbirkorlar jalb qilinmoqda. Bu orqali kurashni ommalashtirish va rivojlantirishga qo'shimcha mablag'lar ajratilishi ko'zda tutilgan.



Xulosa. O‘zbek kurashi – xalqimizning azaliy tarixiy merosi, milliy g‘urur timsoli hamda jismoniy va ma’naviy tarbiyaning muhim vositasidir. Mazkur maqolada kurash sportining paydo bo‘lishi, uning tarixiy shakllanish bosqichlari, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, shuningdek, uni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va qonunchilik asoslari atroflicha tahlil qilindi.

Bugungi kunda kurash sporti rasmiy maqomga ega bo‘lib, uning rivojlanishini tartibga soluvchi tegishli qonunlar, qarorlar hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sport sohasiga oid farmonlari va qarorlari kurashni xalqaro miqyosga olib chiqish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Kurash federatsiyasi hamda Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mazkur sport turini professional darajada rivojlantirish, xalqaro musobaqalarni tashkil etish va yosh avlod orasida ommalashtirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, kurash sporti nafaqat o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosini ifoda etuvchi omil, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni jismonan barkamol, ma’nan yetuk insonlar qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida kurashni yanada rivojlantirish, uni xalqaro sport maydonlarida tanitish va yosh avlodga chuqur singdirish har birimizning dolzarb vazifamiz bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 8-bob,47-modda
2. Yusupov kurash, Kurash, T., 1999; Mo‘minov A., Prezident. Sport. G‘alaba!, T., 2001.
3. Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi ,E.M.Soatov, Toshkent,"City book", 2023.
4. www.lex.uz
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa
6. <https://kurash-ukf.uz>